IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245

SPECIAL ISSUE, VOLUME 5, ISSUE 2, 2023

XORIJIY MAMALAKATLARDA O‘ZBEKISTON FUQAROLARINING MEHNAT BILAN BOG‘LIQ XUQUQIY XATARLARGA DOIR KOLLIZION MASALALAR

Mirzarahimov Jahongir Muzaffarjon o’g’li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro xuquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti talabasi

94 444 46 01

mirzarakhimovjakhongir20@gmail.com

Annotatsiya

Mehnat huquqi, kollizon masalalar, tashqi mehnat migratsiyasi haqida ma’lumot, statistika, Ushbu maqolada mehnatga oid kollizion masalalar va ularning mamlakatlar o‘rtasida tadbiq etilishi kabi masalalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar

Mehnat huquqi, migratsiya, apatrid, kollizion normalar, shaxsning shaxsiy qonuni, fuqarolik huquq layoqati,tenglik prinsipi.

Kirish

Bugungi kunda nafaqat milliy miqyosda, balki xalqaro tashkilotlar doirasida mamlakatlarning roli, xalqaro tashkilotlarning xorijiy fuqarolar faolyatini huquqiy tartibga solish masalalari, tashqi mehnat migratsiyasi va uning huquqiy masalalari bo‘yicha turli ilmiy munozaralar olib borilmoqda. Buning asosiy sababi – keyingi yillarda dunyoda mehnat migratsiyasi jarayoning keskin kuchayishi, chet el fuqarolarining boshqa davlatlarda faoliyat yuritishga intilishlari ortib borayotgani yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi bilan yaqindan amaliy aloqa o‘rnatmoqchi bo‘lgan davlatlarning soni yildan-yilga oshib bormoqda. O‘zbekiston xududiga tashrif buyuruvchi jismoniy shaxslarning soni ham borgan sari ortmoqda. Xalqaro aloqalarning kengayishi natijasida sud, arbitraj, notariat, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etuvchi va boshqa davlat organlari o‘z faoliyatlarida xalqaro xususiy huquqning murakkab muammolariga duch kelmoqdalar Kollizion normalar va ularni qo‘llash bilan bog‘liq qoidalar shunday murakkab va muhim muammolardan hisoblanadi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyodan Rossiyaga mehnat muhojirlaining asosiy donor davlatlari O‘zbekiston, Tojikiston, va Qirg‘izistondir. Agar 2017-yil yilda Rossiya federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistondan 1 822 933 kishi mehnat muhojiri sifatida ro‘yhatdan o‘tgan bo‘lsa, 2018-yilga kelib ularning soni 2 007 407 kishiga yetdi. Tojikistonda xuddi shu davrda 936 752 nafar muhojir bo‘lgan bo‘lsa, 2018-yilga kelib ularning soni 1 018 497 nafarga yetdi. 2017-yilda 376 863 nafar qirg‘izistonlik Rossiyada ishlagan bo‘lsa, 2018-yilga kelib ularning soni 351 959 nafarga ko‘paydi. Hamma mehnat migratsiyasi qonuniy bo‘lmagani uchun mehnat muhojirlarining aniq sonini aytish qiyin. Aksariyat muhojirlar Rossiyada ro‘yxatga olinmagan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yil 1-oktabr holatida O'zbekiston respublikasining doimiy aholisi soni 35,8 million nafardan ortiq. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yil yanvar oyi holatiga ko'ra 1,7 mln nafar yurtdoshlarimiz mehnat muhojiri sifatida chet elda mehnat qilib kelmoqda.

Demak, rasmiy ma'lumotlarga asoslanib, O'zbekistonning mehnat layoqatli yoshdagi umumiy aholisining deyarli 8,5 foizi, doimiy o'rtacha aholining esa deyarli 5,0 foizi ishlash maqsadida mamlakatni qonuniy tarzda tark etgan deb hisoblashimiz mumkin.

Umuman olganda, Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi migratsiya jarayonlari SSR parchalanganidan keyin dunyodagi eng barqaror yo'laklardan biriga aylandi.

Kolliziya – lotincha, ish degan ma'noni bildiradi. Lekin ushbu atama shartli ahamiyatga ega. Aslida qonunlar kolliziyasi, ya'ni ular o'rtasida qo'llanilishi zarur bo'lgan qoidani tanlash haqida gap yuritiladi. Sud yoki boshqa organ tomonidan turli davlatlar qonunlarini o'rganish, izohlash va qiyoslash yo'li bilan chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatga nisbatan tegishli huquq normasini qo'llash to'g'risidagi masalaning hal qilinishi, xalqaro mulkiy va shaxsiy munosabatlarni to'g'ri tartibga solish uchun muhim ahamiyatga ega. Kollizion muammo u yoki bu huquqiy munosabatga nisbatan qo'llash uchun tegishli bo'lgan huquqni tanlash muammosidan iborat. Kollizion normalar boshqa huquq sohalari normalariga nisbatan ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Lekin ular xalqaro xususiy xuquqning mazmunini tashkil qiladi va moddiy-huquq sohalaridagi to'qnashuvlarni bartaraf qilishda asosiy vazifani bajaradi.

Asosiy qism

O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasining 18-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil xuquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi,irqi,millati,tili,dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qa'tiy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Fuqarolik kodeksining 1168-moddassiga asosan: jismoniy shaxs qaysi mamlakatning fuqarosi bo'lsa, shu mamlakat xuquqi uning shaxsiy qonuni xisoblanadi. Agar shaxs ikki yoki undan ortiq fuqarolikka ega bo'lgan taqdirda u qaysi mamlakat bilan eng ko'p uzviy bo'g'langan bo'lsa, uning uchun o'sha mamlakat huquqi shaxsiy qonun xisoblanadi.

Fuqaroligi bo'lmagan shaxs qaysi mamlakatda doimiy yashab turgan bo'lsa, o'sha mamlakat huquqi uning shaxsiy qonuni xisoblanadi. Qochoqqa unga boshpana bergan mamlakatning qonuni shaxsiy qonun xisoblanadi. Misol uchun O'zbekiston fuqarosi chet elda zarar yetkazilganligi oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha huquq va burchlar, agar fuqarolar yoki yuridik shaxslar ayni bitta davlatdan bo'lsalar, shu davlat huquqi bilan xal qilinishi lozim.

Jismoniy shaxsning shaxsiy qonuni (lex personalis) umumlashgan qonuniy tushuncha hisoblanadi. Shu bilan birga shaxsning shaxsiy qonunining o'zi shaxsning fuqaroligi mansub bo'lgan mamlakat huquqi (lex nationalis) bilan yoki yashash joy qonuni (lege domicilii) bilan belgilanadi. Bir-biridan farqli ikki kollizion bog'lovchilarnig birlashuvi qonun chiqaruvchiga jismoniy shaxsning shaxsiy qonunini aniqlashning asosiy materiallarini to'liq tartibga solish imkonyatini beradi. Shaxsiy

qonunning umumlashgan tushunchasi bir qator chet mamlakatlarning (Avstriya, Vengriya, Germaniya, Ispaniya, taliya va MDH) mamlakatlarining bir qatorida milliy fuqarolik qonunchiligida ham qo‘llaniladi. Jahon huquq tizimida jismoniy shaxsning shaxsiy maqomiga aloqador masalalarni kollizion huquqiy tartibga solishda ikkita asosiy yondashuv ishlab chiqilgan.

Birinchi yondashuvga ko‘ra, shaxsiy maqom masalalari jismoniy shaxsning fuqaroligi mansub bo‘lgan mamlakat xuquqi asosida belgilanadi. Ushbu norma fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga qanday qo‘llaniladi?

Fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga (apatrid) nisbatan qo‘llanilishi lozim bo‘lgan xuquqni tanlash imkonini bermasa, bunday shaxsning shaxsiy maqomi ko‘rsatilgan davlatlarda, qoidaga ko‘ra u doimiy yoki oddiy yashash joyiga (doimiy) ega bo‘lgan mamlakat qonunlari bilan, u mavjud bo‘lmaganida esa, fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning (apatrid) turar joyi huquqiga ko‘ra qo‘llaniladi.

Ikkinchi yondashuvga ko‘ra, umumiy huquq davlatlari (Avstraliya, Buyuk Britaniya, AQSH,) va boshqa konintental yevropaning ayrim davlatlari, Lotin Amerikasining ko‘pgina davlatlari va bir qator boshqa davlatlarda qabul qilingan shaxsning shaxsiy maqomi ko‘rsatilgan mamlakatlarda (domisiliy) universal kollizion bog‘lovchi bo‘lib xizmat qiladi. Chunki bu jismoniy shaxs biron-bir fuqarolikka ega bo‘lish, bo‘lmasligidan qat’iy nazar qo‘llanilishi lozim bo‘lgan huquqni aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga ushbu shaxs bir necha mamlakatlarda yashash joyiga ega bo‘lsa, u eng uzviy bog‘liq bo‘lgan mamlakatni aniqlash uchun qo‘shimcha bog‘lovchilarni qo‘llashi zarur.

Yer sharida aholi soni tez suratlar bilan ko‘payib, uning resuslari va iqtisodiy imkonyatlari deyarli o‘zgarmasdan qolayotgan bir paytda barchani ish bilan ta’minlash, ochlik va kasalliklarga, qashshoqliklarga qarshi kurashish dolzarb vazifalardan ekanligi ko‘rishimiz mumkin.

Insonning eng muhim ijtimoiy – iqtisodiy huquqlaridan biri bo‘lgan mehnat qilish huquqini ro‘yobga chiqarish, ishsizlikka qarshi kurashish, aholi bandligini ta’minlash borasidagi xalqaro hamkorlik va bu sohadagi ijtimoiy munosabatlarni xalqaro huquqiy tartibga solish Birlashgan Millatlar Tashkilotining bevosita ishtiroki hamda rahbarligi ostida, uning ixtisoslashtirilgan va mintaqaviy tashkilotlari keng jalb etilgan holda amalga oshiriladi.

Mehnat, bandlik va minimal mehnat sharoitlarini ta’minlashga doir global masalalar Birlashgan Millatlar Tashkilotining eng ahamiyatli xalqaro huquqiy hujjatlari: << Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi >> 1948-yil 10-dekabr “Iqtisodiy-Ijtimoiy va Madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (1966-yil 19-dekabr) va boshqa xujjatlarda mustahkamlab qo‘yilgan.

“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 23-moddasiga ko‘ra: har bir inson mehnat qilish, ishni erkin tanlash, adolatli va qulay sharoitga ega bo‘lish va ishsizlikdan himoya qilinishi huquqiga ega. “Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi paktning 6-moddasiga ko‘ra, ushbu paktda ishtirok etuvchi davlatlar har bir insonning ishlab mablag‘ topish imkoniyatini qamrab oladigan mehnat qilish huquqini tan oladi. Mehnat turini har bir odam erkin holda tanlaydi yoki unga erkin holda rozi bo‘ladi. Shu paktga a’zo bo‘lgan davlatlar esa fuqarolarni mazkur huquq bilan ta’minlash uchun zarur choralar ko‘radi.

Mehnatga oid masalalarni huquqiy tartibga solishda, ayniqsa Xalqaro Mehnat Tashkilotining o‘rni kattadir. Xalqaro Mehnat Tashkiloti BMTning ixtisoslashgan muassasasi maqomiga ega holda

ish olib boradi. Yangi tahrirdagi mehnat kodeksining 521-moddasiga asosan: O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi va yashash guvohnomasiga ega bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga nisbatan mehnat to‘g‘risidagi umumiy qonunchilikning normalari tatbiq etiladi.

Mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy ravishda kirib kelgan va yashash guvohnomasiga ega bo‘lmagan chet el fuqarolariga nisbatan mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik qo‘llaniladi. Fuqarolik kodeksining 1169-moddasiga ko‘ra: jismoniy shaxsning huquq va muomila layoqatlari uning shaxsiy qonuni bilan belgilanadi. Ya’ni O‘zbekiston fuqarosining muomila layoqati cheklangan yoki cheklanmagan deb topilishi O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra amalga oshiriladi.Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik huquq layoqatidan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda foydalanadilar. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 6-moddasiga ko‘ra, shaxs, u qayerda bo‘lishidan qa’tiy nazar, uning xuquq subyekti ekanligini tan olish huquqiga ega. Alohida davlatlarning qonunchiligi fuqarolik huquq layoqatining, ya’ni fuqarolik huquqlariga va majburyatlarga ega bo‘lish layoqati (FK – 17 moddaning) vujudga kelishi va tugatilishini bir xilda belgilamaydi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi va Germaniyada fuqaroning xuquq layoqati uning tug‘ilishi bilan vujudga keladi va vafot etishi tugatiladi. Italiyada fuqarolik xuquq va majburiyatlarga ega bo‘lish layoqati bolaning ona tanasidan ajralgandan 24-soat o‘tgandan so‘ng boshlanadi. O‘zbekiston Respublikasi konsitutsiyasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi xududida bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ravishda ta’minlanadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasinig 3-moddasiga asosan, har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy dahlsizlik xuquqiga ega ekanligi ta’kidlangan. Bu norma bejizga keltirib o‘tilmagan. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlariga muvofiq, xukumatlararo, idoralararo shartnomalar va bitimlar asosida faqat Tashqi mehnat migratsiyasi bo‘yicha agentlik ko‘magida O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va Mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan belgilangan tartibda mehnat faolyatini amalga oshirish uchun chet elga chiqish huquqiga egadirlar.

“Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam huquqiy munosabatlar to‘g‘risidagi” (Minsk) konvensiyasining 1-moddasiga asosan: ahdlashuvchi tomonlarning har birining fuqarolari, shuningdek uning hududida yashovchi shaxslar boshqa barcha ahdlashuvchi tomonlarning hududlarida o‘zlarining shaxsiy va mulkiy huquqlariga nisbatan ushbu ahdlashuvchi tomonning o‘z fuqarolari bilan bir xil huquqiy himoyadan foydalanadilar.

XULOSA

Mehnat Migratsiyasi Markaziy Osiyoda, aynisqsa Rossiya, Qozog‘iston, Janubiy Koreya, Amerika Qo‘shma Shtatlari kabi davlatlarda mehnat migratsiyasi siyosiy muammo sifatida qaralmoqda. Migrantlar ijtimoiy-iqtisodiy muhitga keyin esa siyosiy muhitga bosim o‘tkazishi mumkin. Mening fikrimcha, mehnat migratsiyasini tartibga solish uchun O‘zbekiston “Bandlik va mehnat munosabatlari“ vazirligining bevosita boshchiliga ishchi kuchi import qiluvchi mamlakatlar, yirik kompaniyalar buyurtmalariga muvofiq yollanma, malakali ishchi va mutaxassislarni tayyorlash mexanizmini takomillashtirish lozim. Bunda kasbiy malaka va ko‘nikmalarga ega iqtidorli yoshlar

tanlov asosida saralab olinadi, muayyann davr davomida ularga borib ishlashi lozim bo‘lgan mamlakatning tili, tarixi, urf-odatlari, an’analari o‘rgatiladi. Tanlagan ish, kasb-hunar bo‘yicha zaruriy malaka va ko‘nikmalar shakllantiriladiki, toki migrant o‘zi tashrif buyurgan mamlakat yoki korxona talablari darajasida vazifalarni bajara oladigan tayyorgarlikka ega bo‘lsin. Bu esa so‘nggi yillarda ko‘plab salbiy oqibatlarga olib kelgan xususiy bandlik agentliklarida (XBA) kuzatilgan firibgarlikdan holi davlat tomonidan kafolatlangan funksiyasi kengaytirilgan tashqi mehnat migratsiyasi agentligi ko‘rinishida bo‘lishi lozim. Ishchi kuchi eksportni ilmiy asosda yo‘lga qo‘yilishi respublikaga juda katta manfaat keltiradi:

Birinchidan, ishchi kuchi eksportidan keladigan daromad miqdori keskin oshadi;

Ikkinchidan, yoshlarda malakali ishchi yoki malakali mutaxassis bo‘lishiga ya’ni yaxshi o‘qishiga qiziqishi ortadi;

Uchinchidan, yoshlarda xorijiy tillarni o‘rganishga moyillik va tajriba ortadi;

To‘rtinchidan, xorijda malakali ishlarni bajargan yoshlarimiz o‘z yurtiga qaytganida milliy iqtisod ravnaqiga munosib hissa qo‘shish imkonyatiga ega bo‘ladi.

Ikkinchi taklif. Yurtimizda ishsizlik muammosini xal qilish, iqtisodiyotda band bo‘lganlarni munosib ish haqi bilan taminlash bevosita iqtisodiy o‘sish suratlariga bog‘liq. Shu sababli davlat arboblari, ma’sulyatli lavozimdagi amaldorlar, partiya rahnamolari, professor o‘qituvchilar va olimlarning maoshlarini mamlakatda iqtisodiy o‘sish suratlari bilan birgalikda oshirib borish tartibini joriy etish.

Uchinchi taklif. “Ish haqi minumumi“ va “Yashash minumumi” to‘g‘risidagi qonunlarni qabul qilish va amaliyotga joriy qilish. Ushbu chora mamlakatda yaratilgan va bozor subyektlari orasida taqsimlanishi lozim bo‘lgan milliy daromadda yollanma ishchilarning ulushini adolat yuzasidan oqilona darajada ko‘tarish orqali nafaqat mehnat migratsiyasini balki mamlakatda boshlangan kambag‘allikka qarshi kurash strategiyasini amalga oshirishning ham muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Fuqarolik kodeksining 1179 – moddasiga asosan : shaxsiy nomulkiy xuquqlarga nisbatan bunday huquqlarni ximoya qilish to‘g‘risidaagi talab uchun asos bo‘lib xizmat qilgan xarakat yoki boshqa xolat sodir etilgan mamlakat huquqi qo‘llaniladi ya’ni mehnat munosabati asosida kelib chiqgan nizo qaysi joyda kelib chiqgan bo‘lsa, kollizin norma sifatida o‘sha joy qonuni qo‘llaniladi. (lex loci delicti comissii)

Misol uchun O‘zbekiston fuqarosi Rossiyada ishlab yurish chog‘ida mehnatga oid nizo kelib chiqdi bunda aynan ushbu moddaga asosan nizo kelib chiqgan davlat qonuni qo‘llaniladi ya’ni Rossiya qonunchiligi bo‘yicha chora ko‘riladi.

Mehnat kodeksining 10-moddasi 2-qismiga ko‘ra, Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida xodimlar uchun O‘zbekiston Respublikasining mehnat to‘g‘risidagi qonunchiligiga yoki mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga nisbatan imtiyozliroq qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Xalqaro mehnat nizolariga nisbatan qo‘llaniladigan kollizon normalar davlatlar o‘rtasidagi fuqarolar mehnati yuzasidan kelib chigan holatda va xalqaro shartnomalar yoki konvensiyalarga asosan va

IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
SPECIAL ISSUE, VOLUME 5, ISSUE 2, 2023

umum etirof etilgan prinsiplarga ko‘ra aytishimiz mumkinki xalqaro mehnat nizolarini xal qilish asosan mehnat nizosi vujudga kelgan joy qonuni bo‘yicha belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

I. Asosiy adabiyotlar :

1.Xalqaro xususiy huquq darslik : / I.Rustambekov, T:TDYU, 2019-354 bet

II. Normativ-huquqiy hujjatlar :

2.O‘zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi – T: 2023

3.O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi – T: 2022

4.O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi – T: 2023

5.Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi – T: 1948

6.Ijtimoiy,iqtisodiy, va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt – T: 1995

7.Minsk konvensiyasi – T: 2020

WORDLY KNOWLEDGE